



Axborot xabarnomamizning o'ninchi soniga xush kelibsiz!

E'tiboringizga [Yevropa Ittifoqi](#) (YI)ning [Xalqaro Savdo Markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan “[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jarayoniga ko'maklashish](#)” loyihasibo'yicha axborot xabarnomamizning o'ninchi sonini taqdim etishdan mamnunmiz. Loyihamiz O'zbekistonni [Jahon Savdo Tashkiloti](#) (JST)ga a'zo bo'lish jarayonida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. JSTga a'zo bo'lish mamlakatga o'z iqtisodiyotini modernizatsiyalashda hamdajahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishda yordam beradi.

Ushbu sonda 2023-yilning yanvar va mart oylari oralig'idagi chorakda O'zbekistonga ko'rsatilgan texnik ko'mak to'g'risida ma'lumot beriladi. Chorak mobaynida amalga oshirilgan ishlar qatorida XSM O'zbekistonlik mansabdor shaxslariga JST ko'p tomonlama muzokarasida, xususan, 2023-yil 14-mart kuni bo'lib o'tgan ishchi guruh (IG)ning 6-yig'ilishida qatnashishiga ko'mak ko'rsatdi. Shuningdek maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)ga tegishli qonunlarning tahlili borasida muayyan ish qilindi. Ushbu chorak davomida tijorat huquqi bo'yicha maxsus tuzilgan kurs bo'yicha Toshkentdagi [Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti](#) (JIDU)da o'tilgan darslar asosiy diqqatga sazovor voqea bo'ldi. Hozirda u bakalavriat dastularida o'tiladigan to'laqonli modulga aylandi. Ushbu chorakda xususiyl sektorqa qaratilgan o'quv seminarlarining ikkinchi turkumi boshlab yuborildi, bu gal ular JSTning qishloq xo'jaligi sohasidagi talablari kabi muhim mavzuda bo'ldi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу бундани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

JSTga a'zo bo'lish jarayonida qo'shilayotgan mamlakat o'z savdo va iqtisodiy tartiblarini JST a'zolariga ma'lum qilishi lozim. So'ng ma'lumot a'zolik shartlari to'g'risida muzokara olibborish uchun asos sifatida qo'llaniladi. Ushbu ko'p tomonlama muzokara Ishchi guruhyig'ilishlari zahirida yuz beradi. Loyiha ushbu jarayonda O'zbekistonga ko'maklashadi. 2023 yil, 14 mart kuni Ishchi guruhning 6-yig'ilishi bo'lib o'tdi, u qo'shilish jarayonini yangibosqichga ko'tarishga yordam ko'rsatdi.

Tadbirni tayyorlash jarayonida yanvar oyida qatorikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Bundan tashqari Investitsiya, sanoat va savdovazirligi (ISSV)dan uch mansabdor shaxslarning transport xarajatlarini qoplash orqali 2023 yil yanvarda, Jenevada bo'lib o'tgan ikki tomonlama uchrashuvlarda qatnashishigako'maklashdi. Shuningdek, loyiha hisobidan yetti nafar mansabdor shaxslarning JSTda mart oyidagi Ishchi guruh yig'ilishida qatnashish safari xarajatlari moliyalashtirildi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

Milliy qonunchilikning JST qoidalariga muvofiqligi tashkilotga a'zo bo'lish jarayonidagi engmuhim talablardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan loyiha milliy qonun hujjatlarni tahlilqilishda va shu orqali JSTga a'zo bo'lishda talablar bajarilishiga ko'maklashmoqda. O'tganchorak mobaynida, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) bo'yicha ishlab chiqilgan sanoatkorxonalarini qo'llab-quvvatlash choralarini tahlil qilishda yordam ko'rsatildi.

Loyiha doirasidaJST talablariga mosligini aniqlash maqsadida investitsiya va savdoni rag'batlantirishga oid18 ta qonunning tahlili bajarildi. Hozirda ushbu tahlil natijalarini sheriklar ko'rib chiqmoqdalar.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

JST kelishuvlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlat mansabdor shaxslarining malakasi va salohiyatini oshirish hamda texnik yordam ko'rsatish loyiha mamlakatning JSTga a'zolidan uzoq muddatda foyda olish imkoniyatini ta'minlash maqsadining asosini tashkil etadi. Ushbu muhim ko'nikma va bilimni oshirishni rag'batlantirish uchun yetti nafar O'zbekistonlik davlat mansabdor shaxslari – Investitsiya, sanoat va savdo vazirligining uchboshqarmasi vakillarining - Shveysarining Berndagi [Jahon Savdo Instituti](#) tomonidan 2023 yil, yanvar va fevral oylarida Qishki akademiya davrida taqdim etilgan savdo siyosati bo'yicha kurslarda ishtirokini moliyaviy qo'llab-quvvatladi (tafsilotlarni [veb-hikoya](#)da ko'rish mumkin). Ular JSTning chegara choralari va savdoni osonlashtirish to'g'risidagi huquqi; dempingga qarshi va himoya choralari; subsidiyalar va kompensatsiya choralari; vazirliklar savdosi huquqi va siyosati bo'yicha kurslarda qatnashdilar.



Davlat mansabdor shaxslari Bernda, Shveysariyada, JSI Qishki akademiyasining savdo siyosati bo'yicha kursida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Fotosurat: XSM

Bu chorakda muhim voqea Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) uchun savdo huquqi modulining yakunlanishi bo'ldi. JIDUning huquq fakultetida 2023-yil fevral oyidan e'tiboran xalqaro huquq fakulteti talabalariga ushbu dastur o'tila boshlandi va talabalar ushbu mashg'ulotlarga katta xayrixohlik bildirdilar. Berndagi [Jahon Savdo Instituti](#) JIDU uchun kursni XSM buyurtmasi bilan ishlab chiqdi. Ushbu mashg'ulotlarning boshlanishi institutsional va texnik salohiyatni rivojlantirish maqsadida loyiha doirasida amalga oshirilayotgan muhim ishning avj nuqtasi bo'ldi. Bu esa O'zbekistonga JSTga a'zolik afzalliklaridan uzoq istiqbolda to'liq foydalanish imkoniyatini beradi. Bu mavzuda batafsilroq [veb-hikoya](#) da o'qish mumkin.

Ushbu o'quv kursi JIDU huquq fakulteti bakalavriat dasturlarining majburiy komponenti sifatida belgilangan. Bu O'zbekistonning JSTga a'ziligini ma'muriy va huquqiy jihatlar danta'minlash uchun zarur bo'lgan davlat va yuridik doiralarda uzoq muddatli institutsional salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatning muhim unsuriga aylanadi. Ushbu kurs xizmatlar savdosi, savdo choralari, savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va sanitariya va fitosanitariya (SFS) masalalari sohasidagi chora-tadbirlar talablari kabi JST bilan bog'liq asosiy mavzularni o'z ichiga oladi. Kursga yordamchi material sifatida XSM tayyorlagan videoni [shu yerda](#) ko'rish mumkin.



Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining xalqaro huquq fakulteti talabalari XSM ko'magida Jahon savdo instituti ishlab chiqqan savdo huquqi kursi bo'yicha dastlabki mashg'ulotda qatnashmoqdalar.

Foto: XSM

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Faoliyati JST qoidalariga muvofiq STT va SFS faoliyati bilan bog'liq O'zbekistonmuassasalarining imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida loyiha avval kelishilgan ishreasini aniqlashtirish bo'yicha muhokamalarni davom ettirdi. Loyiha benefitsiarlari bilankelajakdagi o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va tashkil etilishi bilan bog'liq masalalarmuhokama qilindi. Ushbu treninglar SFS kelishuvi bo'yicha o'tgan yilning noyabr oyidao'tkazilgan umumiy treningga asoslanadi va ularda ishtirokchilar ushbu sohadagi asosiyqoidalar haqida umumiy tasavvurga ega bo'ldilar. Trening haqida batafsil ma'lumot va texniyordam ko'rsatish bo'yicha keyingi rejalarimiz maxsus videoda keltirilgan ([HAVOLA](#))

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyatiningO'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining afzalliklari va jahon iqtisodiyotiga keyingi integratsiyasi to'g'risida xabardorligini oshirishdir. Bu O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini xususiy sektor tomonidan ijobiy qabul qilinishiga yordam beradi. Xususiy sektor vakillari bilan treninglar ayollar va yosh tadbirkorlar kabi maqsadli guruhlar bilan faol muloqotda bo'lishgaqaratilgan.

Ushbu maqsadni qo'llab-quvvatlashni ko'zlab, xususiy sektor uchun moslashtirilgan ikkinchi o'quv tadbirlar turkumi yanvar oyida boshlandi. 2022 yilning oxirgi ikki choragida bo'lib o'tgan birinchi turkumida JST bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy jihatlari va a'zolikdan kutilayotgan foyda qamrab olindi. Shu sababli keyingi treninglar turkumini ixtisoslashtirilgan savdo mavzulariga bag'ishlash qaror qilindi. Xususiy sektorning ushbu ikkinchi turkumseminari mavzusi etib mamlakatning strategik muhim sektori bo'lgan qishloq xo'jaligi va JSTning qishloq xo'jaligi mahsuloti eksportiga tegishli qoidalari tanlandi.

Xususiy sektor uchun birinchi turkum treninglari singari, ushbu turkum ham O'zbekiston viloyatlarida tashkil etilib, joriy chorakda hududlarda – Xorazm, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda o'tkazildi. Batafsilroq [shu yerda](#) o'qish mumkin. Qolgan viloyatlar uchun trening keyingi chorakda davom etadi.



Xususiy sektordagi manfaatdor tараflar ushbu ikkinchi turkum seminarlarida qishloq xo'jaligidagi savdo bo'yicha korxonalar vatan birkorlar uchun yanvarda o'tkazilgan seminarlarda qatnashmoqdalar. Foto: XSM

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)